

**QUL UBAYDIY HIKMATLARIDA VAHDAT UL-VUJUD FALSAFASINING
POETIK TALQINI**

(“Ko‘ngluma ilhom nurikim to‘lar, ey komyob” hikmati tahlili misolida)

Elguzarov Jahongir Ilhomovich,
Toshkent Amaliy fanlar universiteti magistranti

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada XV-XVI asr o‘zbek adabiyotining yirik vakili, Shayboniylar sulolasidan bo‘lgan shoir va hukmdor Ubaydulloxon (Ubaydiy)ning mashhur hikmati — “Ko‘ngluma ilhom nurikim to‘lar, ey komyob” asari tasavvuf falsafasining markaziy tushunchasi bo‘lmish vahdat ul-vujud nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:** Ubaydiy, vahdat ul-vujud, vahdatush-shuhud, jazba, shatahot, fano, mahv, iqtibos, Ibn Arabiy, tasavvuf, hikmat.*

***Аннотация.** В данной статье проводится анализ известного изречения крупного представителя узбекской литературы XV–XVI веков, поэта и правителя из династии Шейбанидов Убайдулла-хана (Убайди) — «Ko‘ngluma ilhom nurikim to‘lar, ey komyob» («Свет вдохновения, что наполняет сердце мое, о преуспевающий») — сквозь призму концепции вахдат ал-вуджуд, являющейся центральным понятием суфийской философии».*

***Ключевые слова:** Убайди, вахдат ал-вуджуд, вахдат аш-шухуд, джазба, шатахат, фана, махв, иктибас, Ибн Араби, суфизм, хикмат.*

***Annotation.** This article analyzes the renowned hikmat (wisdom) of Ubaydullah Khan (Ubaydi), a prominent 15th-16th century Uzbek literary figure and ruler from the Shaybanid dynasty. The work, titled ‘Ko‘ngluma ilhom nurikim to‘lar, ey komyob’, is examined through the lens of Wahdat al-Wujud (Unity of Existence), the central concept of Sufi philosophy.*

***Keywords:** Ubaydi, Wahdat al-Wujud, Wahdat al-Shuhud, Jazba, Shatahat, Fana, Mahw, Iqtibas, Ibn Arabi, Sufism, Hikmat.*

Kirish. O‘zbek mumtoz adabiyotining XVI asrdagi eng yorqin siymolaridan biri Ubaydulloxon (1487–1539) tarixda Ubaydiy taxallusi bilan mashhur bo‘lgan shoir, davlat arbobi va tasavvuf ahlidir. U nafaqat siyosiy tarix, balki adabiyot tarixida ham misilaiz qoldirgan. Uning hikmatlari yuzaki lirikadan yiroq har bir misrasi tasavvuf ilmining chuqur qatlamlaridan suv ichgan.

Ubaydiy ijodini to‘liq anglash uchun uning hikmatiyotida ustuvorlik qiluvchi falsafiy tizim — vahdat ul-vujud ta‘limotini yaxshi bilish zarur. Chunki shoir bu falsafani shunchaki tilga olmaydi; u ushbu g‘oyani o‘z ruhiy tajribasidan o‘tkazib, badiiy tilda ramz, istiora, iqtibos va tazod san‘atlari orqali o‘quvchiga yetkazadi.

Maqolaning bosh maqsadi Ubaydiyning “Ko‘ngluma ilhom nurikim to‘lar, ey komyob” matla’si bilan boshlangan hikmatini vahdat ul-vujud falsafasi, shatahot nazariyasi va iqtibos san‘ati nuqtayi nazaridan chuqur tahlil etishdir. Bu tahlil nafaqat hikmatning mazmuniy qatlamlarini ochib beradi, balki shoir qalbidagi ruhiy holat — jazba, fano, mahv holatlarni ham ko‘rsatib beradi.

Muhokama va natijalar. Vahdat ul-vujud — arabcha “vujudning yagonaligi” demakdir. Bu falsafaning asosiy me’mori hijriy 560-yilda tavallud topgan va 638-yilda vafot etgan Muhyiddin ibn Arabiy hisoblanadi. U o‘zining “Al-futuhatu al-Makkiya” va “Fususul hikam” asarlarida bu nazariyani batafsil bayon etgan. Ibn Arabiy ta’limotiga ko‘ra, Allohdan boshqa barcha narsalar Uning zuhuri — ko‘rinishlaridir. Boshqacha aytganda, borliqdagi barcha mavjudot Haqning turli tajalliyotidir.

Bu nazariya, o‘zining murakkabligi va nozikligi bois, tarixda ikki tomonlama baholandi. Bir toifa ulamolar — hofiz Ibn Hajar Asqaloniy, Alloma Saxoviy, mufassir Abu Hayyon va boshqalar — bu nazariyaga keskin e’tiroz bildirdilar. Ular nazariyaning amaliy talqinida dinga zid fikrlar paydo bo‘lishidan xavotir oldilar. Boshqa toifa esa — tasavvuf ahli — uni katta ma’naviy kashfiyot sifatida qabul qildilar.

Vaziyatni muvozanatlagan shaxs Imomi Rabboniy (1563–1625) bo‘ldi. U “vahdatush-shuhud” tushunchasini ilgari surdi. Uning fikriga ko‘ra, vahdat ul-vujud — solikka yuz beradigan o‘tkinchi ruhiy holat. Solik ilohiy tavfiq ila bu holatdan yuqoriga ko‘tarilsa, “vahdatush-shuhud” maqomiga erishadi. Bu maqomda solik uchun Allohdan boshqa hamma narsa ko‘rinmay qoladi — xuddi quyosh chiqqanda yulduzlar yo‘qoladigani kabi.

Ubaydiy ijodi ana shu ikki nazariya — vahdat ul-vujud va vahdatush-shuhudning tutashadigan nuqtasida joylashadi. Shoir bu falsafalarni badiiy tilda talqin etar ekan, qat’iy e’tiqoddan ham, chuqur zavqdan ham ilhom olgan.

Tahlilga tortilayotgan hikmat quyidagicha:

*Ko‘ngluma ilhom nurikim to‘lar, ey komyob,
Ul mahalda bilmomkim zarramen yo oftob?
Muztarib bo‘lmay netaykim, har zamon Muso kibi,
“Lan tarani” biymidan jonimga tushti iztirob.
Xush bo‘lubtur hol o‘zga, aql zoilu xush mahv,
Jon nig‘oru zor, ko‘ngul shavqidin bag‘ir kabob.
Har necha zoru zaif-u notavon qilduk duo,
Yo Rab, ayla notavonlarning duosin mustajob.
Afv qilmay gar savole aylasa mahshar kuni,
Mushkul amedur savolicha aning bermak javob.
Ijtinob et mosivallohdin tariqat ichrakim,
Mosivallohdin qilibdurlar eranlar ijtinob.
Qul Ubaydiy, shavq ila vahdat mayin no‘sh aylakim,
Yo‘qturur ul mayni ichganlarga hargiz ixtisob.*

Shakl jihatidan bu mumtoz hikmat bo‘lib, qofiya sxemasi “ob” bo‘g‘inida qurilgan: komyob, oftob, iztirob, kabob, mustajob, javob, ijtinob, ixtisob. Yetti bayt va

bir maqta’dan iborat bu hikmat — tarkib jihatidan ham, mazmun jihatidan ham — yaxlit bir tasavvufiy yo‘l xaritasini ifodalaydi.

*Ko‘ngluma ilhom nurikim to‘lar, ey komyob,
Ul mahalda bilmomkim zarramen yo oftob?*

Hikmatning birinchi bayti — matla’ning o‘zi butun asarning ruhiy kaliti hisoblanadi. Shoir "Ko‘ngluma ilhom nurikim to‘lar" deydi. Bu ilhom odatiy she’riy ilhom emas. Bu tasavvufda “kashf” yoki “vorid” deb ataladigan holat — Allohning nuri solikning qalbiga to‘lib-toshib kelishi.

Aynan mana shu lahzada shoir o‘zini bilmay qoladi: “Zarramen yo oftob?” — men zarramanmi yoki quyoshmanmi? Bu savol shatahot — o‘zini yo‘qotib qo‘ygan so‘fiyning tilidan chiqadigan, zohiran g‘alati, botinan esa chuqur ma’noli gapning eng namunaviy ko‘rinishidir.

Jurjoniyning ta’rifiga ko‘ra, shatahot — “oriflardan iztirob paytida sodir bo‘ladigan, zohiran nuqsonli ko‘rinsa-da, botinan haqiqatni anglatuvchi gaplar”dir. Xuddi Mansur Xalloyning “Anal Haq” degan so‘zidek, Ubaydiyning “Zarramen yo oftob?” degan savoli ham shatahot ruhidadir. Shoir bu gapni jazba holatida, o‘zini unutib, aytmoqda. “Bilmomkim” — bilmadim — degan so‘z buning eng yaqqol dalili.

Tazod san’ati nuqtayi nazaridan esa “zarra” va “oftob” qarama-qarshiligi juda hikmatli. Zarra — eng kichik zarracha, hech narsa; oftob — ulug‘ quyosh, hamma narsa. Tasavvufda bu “fano” (yo‘q bo‘lish) va “baqa” (yashash) ning ramziy ifodasi. Haqqa singib ketgan solik bir vaqtning o‘zida hech narsa ham, hamma narsa hamdir.

*Muztarib bo‘lmay netaykim, har zamon Muso kibi,
“Lan tarani” biymidan jonimga tushti iztirob.*

Bu baytda hikmatning eng kuchli iqtibos san’ati namoyon bo‘ladi. “Lan tarani” — arabcha, “Sen Meni hargiz ko‘ra olmaysan” demak. Bu Qur’oni Karimning A’rof surasi 143-oyatidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri olingan ibora.

Oyatda zikr etilishicha, Muso (a.s.) Allohni ko‘rishni so‘raganda, Alloh tog‘ga tajalli qildi — tog‘ kuyib kul bo‘ldi, Muso hushini yo‘qotdi. Allohning javobi — “Lan tarani” — “Sen Meni ko‘ra olmaysan” bo‘ldi.

Ubaydiy o‘zini Musoga qiyoslaydi. Bu nisbat tasodifiy emas. Muso — Allohga eng yaqin bo‘lgan, Uning kalomini bevosita eshitgan payg‘ambar. Shunga qaramay, u Allohning jalolini ko‘ra olmadi. Ubaydiy aytmoqchi: men ham Haqqa intilaman, lekin bu ilohiy ulug‘lik, jalol qarshisida qalbni qamrab oluvchi qo‘rquv-aralash hayrat — shuning uchun “iztirob” bor.

Iqtibosning kuchi shundaki, shoir arabcha oyat iborasini aynan shu holicha she’r matniga singdiradi — na tarjima qiladi, na ta’vilga kirishadi. Oyat o‘z asl muqaddasligida saqlanib qoladi va she’rga ilohiy salobat baxsh etadi.

*Xush bo‘lubtur hol o‘zga, aql zoilu xush mahv,
Jon nigoru zor, ko‘ngul shavqidin bag‘ir kabob.*

Bu baytda shoir tasavvufdagi “hol” va “aql” qarama-qarshiligini tasvirlaydi. “Hol o‘zga” iborasi — ilohiy ishq ta’sirida paydo bo‘ladigan, so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydigan ruhiy kechinmani anglatadi. Bu holatda inson odatiy idrok chegarasidan chiqadi. “Aql zoilu xush mahv” — aqlning ojizlanishi va ilohiy zavq qarshisida yo‘q bo‘lib ketishini bildiradi. Tasavvufda bu hol “mahv” (fano darajasi) bilan bog‘liq bo‘lib, bandaning o‘z “men”idan kechish jarayonini ifodalaydi. Ikkinchi misrada “jon nigoru zor” — ruhning hikmat Haqqa talpinib, iztirob va ehtiyoj ichida qolganini bildiradi. “Bag‘ir kabob” tashbehi esa ishq alangasida kuydirilgan qalb obrazidir. Bu yerda jismoniy azob emas, ruhiy yonganlik nazarda tutiladi. "Fano filloh" tasavvuf ilmida Allohga qo‘shib ketish emas, balki Uning amrlaridan tashqari barcha orzu-istaklardan voz kechishdir. Bu holatda banda faqat Alloh roziligi uchun yashaydi. Ubaydiy aynan shu holatni tasvirlaydi — “hol o‘zga bo‘lubtur” deydi, ya’ni ruhiy holat o‘zgardi, oddiy holat emas bu.

*Har necha zoru zaif-u notavon qilduk duo,
Yo Rab, ayla notavonlarning duosin mustajob.*

Bu bayt tasavvufiy hikmatdan munajatga o‘tishning namunasi. Shoir to‘satdan Allohga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat qiladi. “Notavon” so‘zi uch marta ishlatilgan — shoir o‘z ojizligini ta’kidlab-ta’kidlab iqrar etadi.

Bu ibn Arabiy ta’limotidagi muhim nuqtaga ishora: Alloh oldida o‘z yo‘qligini tan olgan banda vahdatga yaqinlashadi. Katta da’vo emas, balki kamtarlik — tariqatning bosh tamoyili. "Zoru zaif-u notavon" — uchlik — arabcha she’riyatda “ta’did” san’atiga o‘xshash takrir hisoblanadi. Shoir bir g‘oyani uch so‘z bilan kuchaytiradi.

*Afv qilmay gar savole aylasa mahshar kuni,
Mushkul amredur savolig‘a aning bermak javob.*

Bu bayt vahdat ul-vujud falsafasining axloqiy-diniy asosi bilan bog‘liq. Shoir aytadi: agar Alloh Qiyomat kuni avval afv etmasa, Uning savollariga javob berish mushkul. Bu fikr Qur’on va hadis ruhiga mos: insonning o‘z amallariga tayanishi emas, Allohning rahmatiga umid qilishi — haqiqiy tavakkul.

Bu bayt shatahot holatidan hushyorlikka qaytishning belgisi hamdir. Matla’da o‘zini yo‘qotgan shoir, endi Qiyomat haqida, hisob-kitob haqida fikr yuritmoqda. Bu ruhiy to‘lqinning yuqori-quyi harakatidir: jazba — hushyorlik — jazba.

*Ijtinob et mosivallohdin tariqat ichrakim,
Mosivallohdin qilibdurlar eranlar ijtinob.*

“Mo siva Alloh” — arabcha, “Allohdan o‘zga barcha narsa” demak. Bu ibora Qur’on va tasavvuf ilmining bosh tushunchalaridan biridir. Tariqat yo‘lida faqat

Allohga yuzlanish, dunyo va dunyo talablaridan yuz o'g'irish — vahdat ul-vujudning amaliy ko'rinishi.

"Eranlar" — pir, avliyo, kamolot ahli. Shoir aytmoqchi: men bu gapni o'zimdanda aytmayapman — o'tgan barcha buyuk zotlar ham shu yo'lni tutgan. Bu "hujjat" uslubi — o'zidan oldingilarning yo'liga tayanib gapirish.

"Mo siva Alloh" iborasining ikki marta takrorlanishi — takrir san'ati — g'oyani ikkiga kuchaytiradi. Avval buyruq ("ijtinob et"), keyin dalil ("eranlar ham shunday qilgan") — bu klassik xitob uslubi.

*Qul Ubaydiy, shavq ila vahdat mayin no'sh aylakim,
Yo'qturur ul mayni ichganlarga hargiz ixtisob.*

Hikmatning xotima bayti — maqta' — butun asarning falsafiy xulosasini o'zida jamlaydi. "Vahdat mayi" — ilohiy birlik, Allohga qo'shilish majozi. Sharq she'riyatida "may" ko'pincha ilohiy ishq va ma'rifat ramzida ishlatiladi — haqiqiy sharob emas.

"Ixtisob yo'q" — hisob-kitob yo'q — bu ibora Qur'oni Karim Vaqea surasi ruhiga mos. Allohga to'liq berilib, vahdat maqomiga erishgan solikdan hisob so'ralmaydi — bu Allohning rahmati.

"Qul Ubaydiy" — shoir o'zini "qul" — banda — deb ataydi. Bu maqta'ning eng muhim kaliti. Butun hikmat bo'ylab shatahot, fano, mahv holatlarini tasvirlagan shoir, so'ngida o'zini Allohning bandi sifatida tanishtiradi. Tasavvuf ilmida shatahot — so'fiyning jazb holatida aytgan, zohiran g'alati, botinan chuqur ma'noli so'zlari. Jurjoni shatahotni "oriflardan iztirob paytida sodir bo'ladigan, ilohiy iznsiz aytilgan gaplar" deb ta'riflagan. Ubaydiy hikmatida shatahot elementi quyidagilarda ko'rinadi:

Birinchidan, matla'dagi "Bilmomkim zarramen yo oftob?" — bu o'zini bilmay qolish holati. Inson o'zini oftobga qiyoslashi — zohiran ulug'lanish, botinan esa Haq nuriga singib ketish. Shoir "bilmomkim" deb bu holatning o'tkinchi, ixtiyorsiz ekanini ta'kidlaydi.

Ikkinchidan, ikkinchi baytdagi Muso misolida — shoir o'zini Alloh kalomini bevosita eshitgan payg'ambarga o'xshatadi. Bu ham shatahot ruhida — lekin iqtibos orqali qilingan.

Biroq Ubaydiy shatahotning xavfli chegarasini biladi. Shu sababli maqta'da o'zini "Qul Ubaydiy" deydi — ya'ni u Mansur Xalloy kabi hushyor holatida ham shatahotda qolmaydi. Aksincha, hikmat bandalik iqrori bilan tugaydi. Bu "tamakkun" holati — solikning o'zini yo'qotmasdan, barqaror holda qolishiga mos.

Tasavvuf ulamolari shatahotni ikki turga ajratganlar: birinchisi — jazba vaqtida aytilgan va hushyorlikka qaytgach tavil berilgan so'zlar (bu ma'zur); ikkinchisi — hushyor holatida ham davom ettirilgan shatahotlar (bu nomaqbul). Ubaydiy birinchi

toifaga mansub — u jazbadagi holatni ifodalaydi, lekin hikmat xulosasida bandalik maqomiga qaytadi.

Iqtibos — Sharq adabiyotida Qur'on oyatlari yoki hadislardan she'rga to'g'ridan-to'g'ri iqtibos keltirish san'ati. Bu san'at shoirning ilmiy salohiyatini ko'rsatish vositasi bo'libgina qolmay, she'rga ilohiy hujjat qo'shadigan muhim usul hamdir. Ubaydiy hikmatida iqtibos san'ati uch darajada namoyon bo'ladi:

Birinchi daraja — to'g'ridan-to'g'ri iqtibos: “Lan tarani” iborasi aynan arabcha oyat matni bilan, o'zgartirmay keltirish. Bu eng sof iqtibos. O'quvchi bu iborani o'qiganda A'rof surasining 143-oyatini ko'z oldiga keltiradi: Muso Allohni ko'rishni so'raydi, Alloh “Lan tarani — sen meni ko'ra olmaysan” deydi, tog' kuyadi, Muso hushini yo'qotadi.

Ikkinchi daraja — ma'noviy iqtibos: “Mahshar” tasviri, hisob-kitob, afv tushunchalari Qur'onning Zilzala surasi va Anbiyo surasi ruhiga mos. Shoir oyatni keltirmaydi, lekin uning ma'nosini baytga singdiradi.

Uchinchi daraja — istilohiy iqtibos: “Mo siva Alloh”, “vahdat mayi”, “ixtisob yo'q” — bu iboralar Qur'on va tasavvuf ilmidan olingan istilohlar. Ular she'rdan ramziy ma'noga ega. “Vahdat mayi” ni ichganlardan ixtisob yo'qligi — Vaqea surasi 19-oyatining majoziy talqini.

Iqtibos san'ati hikmatga uch xil ta'sir ko'rsatadi: birinchi — she'rga ilohiy hujjat qo'shadi; ikkinchi — o'quvchi xayolida Qur'on sahnalarini jonlantiradi; uchinchi — shoirning Qur'on va hadis ilmidagi doimiy salohiyatini namoyon qiladi.

Ubaydiy hikmati bir necha muhim badiiy san'atlarni o'zida jamlaydi. Ularni quyidagicha tasnif etish mumkin:

Tazod (antiteza): “Zarra” va “oftob”, “fano” va “baqa”, “zor” va “xush” — qarama-qarshi obrazlar. Tazod tasavvuf falsafasining o'ziga xos mantiqini ifodalaydi: yo'qlik va borlik, kichiklik va ulug'lik bir vaqtda mavjud.

Takrir: “Notavon” uch marta, “mo siva Alloh” ikki marta takrorlanadi. Takrir nafaqat ritmik ta'sir, balki ma'noviy urg'u vositasi. Shoir muhim g'oyani qayta-qayta ta'kidlaydi.

Istiora (metafora): “Vahdat mayi” — ilohiy birlik mayga o'xshatiladi. “Bag'ir kabob” — jigar kuyishi — kuchli ichki iztirobning ramzi. “Ilhom nuri” — ilhomni nurga qiyoslash.

Talmeh (kinoya): Muso va Tur tog'i qissasiga ishora. O'quvchi qissani biladi — shoir uni to'liq bayon qilmaydi, shunchaki Muso nomini va “Lan tarani” iborasini keltiradi. Qolganini o'quvchi o'zi to'ldiradi.

Ubaydiyning tahlil etilgan hikmati — tasavvuf adabiyotining noyob namunasi. Shoir bu asarda uch muhim vazifani bir vaqtda amalga oshirgan: birinchisi — vahdat ul-

vujud falsafasini badiiy tilda ifodalash; ikkinchisi — ruhiy holatlar silsilasini — jazbadan munojotga, shatohatdan bandalik iqroriga — izchil tasvirlash; uchinchisi — Qur’on va hadis bilan hikmatni iqtibos san’ati orqali boyitish.

Matla’dagi shatahot holati — “Bilmomkim zarramen yo oftob?” — hikmatning bosh mavzuini belgilaydi: ilohiy ilhom paytida inson o’zini yo’qotadi, fano holatiga kiradi. Bu holat Muso qissasi bilan davom etadi — “Lan tarani” iqtibosi orqali yetkaziladi. Uchinchi baytda mahv va fano to’liq tasvirlangandan so’ng, shoir hushyorlikka qaytadi, munojot qiladi, Qiyomat haqida o’ylaydi va oxirida — maqta’da — o’zini “qul” deb ataydi.

Bu ketma-ketlik tasodifiy emas. Bu tariqat yo’lidagi solikning haqiqiy yo’li: jazba — iztirob — mahv — munojot — bandalik. Ubaydiy bu yo’lni o’z qalbidan o’tkazib, so’ng qog’ozga tushirgan.

Ubaydiy “tamakkun” holatiga mos shoir: u jazbada shatahot aytadi, lekin hushyorlikka qaytgach, bandalik maqomini yo’qotmaydi. Shu sababli uning hikmati ham ilohiy ishqni, ham shariat chegarasini bir asar ichida uyg’unlashtira oladi.

Xulosa qilib aytish mumkin: Qul Ubaydiy hikmatiyotida vahdat ul-vujud falsafasi shunchaki nazariya emas — bu shoirning o’z yuragidan o’tgan, o’z tiliga aylangan ruhiy tajriba. Mana shu sababli uning hikmatlari besh asr o’tganida ham o’quvchi qalbiga yetib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Ibn Arabiy. Al-futuhatu al-Makkiya. Bayrut: Doru Sodir, 1968.
2. Ibn Arabiy. Fususul hikam. Tarj.: A.Stepanyans. Moskva: 1995.
3. Imomi Rabboniy. Maktuboti Rabboniy. Toshkent: Movarounnahr, 2005.
4. Bertels Ye.E. Sufizm i sufiyskaya literatura. Moskva: Nauka, 1965.
5. Qur’oni Karim. A’rof surasi, 143-oyat; Vaqia surasi, 19-oyat; Zilzol surasi, 7-8-oyatlar.
6. Jurjoniy Ali ibn Muhammad. Kitob at-ta’rifot. Bayrut: Maktabat Lubnan, 1985.
7. Ubaydulloxon (Ubaydiy). Devon. Qo’lyozma. O’zR FA Sharqshunoslik instituti, inv. №. 2494.
8. Yo’ldoshev Q. O’zbek mumtoz adabiyotida tasavvuf. Toshkent: Fan, 2010.
9. Schimmel A. Mystical Dimensions of Islam. Chapel Hill: UNC Press, 1975.
10. Fitrat A. O’zbek adabiyoti namunalari. Toshkent: 1928.